

**ORFOEPIYA VA IMLO ME'YORLARINING O'QITILISHI (5 – SINIF “ ONA TILI “
DARSLIGI MISOLIDA)**

Rustamova Jasmina Jamshid
Rafiyeva Gulnoza Maxmudjonovna
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va
tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va
tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
3 - bosqich talabalari Email :
Shoxa4118@gmail.com

Annotatsiya : *Ushbu maqolada orfoepiya va orfografiya (imlo me'yorlari) bo'limlari haqida ma'lumot beriladi . Bu bo'limlarning 5 - sinf " Ona tili" darsligida qanday o'qitilishi , mavzularda berilgan o'quv topshiriqlar tahlili ,yutuq va kamchiliklari to'grisida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar : *orfoepiya , transkripsiya , orfografiya , orfogramma .*

Orfoepiya so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek. Ozak va qo'shimchalardan iborat so'z formalarini to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo'limi ham orfoepiya deyiladi.

Orfoepik meyorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi jonli tildagi turlicha talaffuz ko'rinishlaridan adabiy til an'analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi Masalan. O'zbek shevalarida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: ro'4-jo'q. ko'z-go 'z. ota-ata, aka-oka, anor-onar kabi. Hozirgi zamon davom feli qoshimchasi shevalarda - yap(ti). -op(ti). -utti. -vot(ti) shakllarida qolanadi: boryapti, boropti, borutti, borvoti kabi. Adabiy tilda shulardan yo'q, ko'z. ota. aka, anor boryapti variantlari adabiy talaffuz meyorlari (orfoepik norma) sifatida saralangan. To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi, Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa. to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi. L unlisi: 1) bir bo'ginli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: til, tish, bil, sir kabi; 2) q. g'. x undoshlari bilan yondosh qollanganda yo'gon (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: qish. g'isht, xil kabi; 3) y. ng undoshlaridan oldin ingichka va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: chiy, kiy, (www.ziyouz.com kutubxonasi) ming kabi; 4) h bilan yondosh bo'lganda ham biroz choziq va ingichka talaffuz qilinadi: hid, hind, his kabi; 5) ko'p bo'ginli so'zlarning urg'usiz bo'ginida_ kuchsiz va qisqa (bilan, birog, sira, tilak, gilam, gilos, viqor kabi). urg'uli bo'g'inda esa kuchliroq va cho'ziqroq (nozik, alik, rostlik kabi) talaffuz etiladi: b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda biroz kengayadi (ai dan kengroq. "c- dan torroq unli tarzda talaffuz

qilinadi): tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi kabi. U unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (tush, tus, pul, bulog, bug doy kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (bulut, yetuk, popuk kabi) talaffuz etiladi: 2) k.g.y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q. g'. x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kul va qul. atirgul va norg'ul, yuk va xulq kabi: 3) -uvchi, -uv affikslar tarkibida cho'ziqroq aytiladi: yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shur kabi. O unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: bo'r, to'r, ro'mol, so'roq kabi: 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inida) cho'ziq talaffuz qilinadi: ko'p-ko'p, to'r-zo'r, mo'l-mo'l kabi: 3) sayoz til orqa k.g. til o'rta y va bo'giz undoshi (h) dan so'ng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q.g'.x undoshlaridan so'ng qattiq va yo'g'on (orqa qator) unli tarzida talaffuz etiladi. Qiyos qiling: ko'p va oo', go'r va g'o'r, ho va xo'r, yo'l va qo'r kabi. E unlisi: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (erkin, ekin, eslamok kabi). Bogin ichida bir oz torroq (kecha, beda, tekin, sekin kabi) talaffuz qilinadi. A unlisi: 1) sayoz til orqa k. g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (kam, kata, gap, gal, gazlama, kayfiyat kabi). chuqur til orqa q. G . x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida (qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir. xalq. xabar. Xat kabi) talaffuz etiladi. O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: tosh, bahor, somon, shamol kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inida #a*ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: samon, davon kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me'yor) hisoblanmaydi: 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan so'ng yumshoq, chuqur til orqa q.g. x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kosib va qoshiq, kotib va qolip, komil va qobil, gov va g'ov, govmish va g'ovlamok kabi; 3) urg'uli bo'g'inida kuchliroq va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: bog'bon, obod so'zlarning birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi o unli talaffuzini qiyoslang: 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llangandaham o unlisi biroz yumshoq. ingichka unli holda talaffuz etiladi. Qiyos qiling: por va gor hokim va xolis kabi. Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar

ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Xususan:

1) b. d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p.t tarzida talaffuz etiladi.

bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: kitob > kitop,

borib > borip, yozib > yozip, savod > savot, obod > obot kabi:

2) b, d undoshlari jarangsiz. undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda

assimilatsiyaga uchrab. p. t holda talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yor hisoblanadi: ibtidoiy > iptidoiy, ketdi > ketti; 3) j. Undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida e yordir: ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur kabi: 4) b. q undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v. g" undoshlariga otishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: bora ber > boraver. keta ber > ketaver kabi. 1. Q. K bilan tugagan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a)

ko'p bo'g'inli so'zlarda qishloq > qishlog'imiz.qishloy ingiz. qishlog 'i: telpak > telpagim. telpaging. telpagi kabi. Bir bo'ginli

so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: o'q > o'qi. tok > toki kabi (yoq.

yo'g sozlari bundan mustasno).2. Q. K. G. G bilan tugagan otlarning jo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: qishloq+ga> qishlogga. chelak- +ga 7 chelakka, 10g'+ga > to4qa. pedagogt8a > pedagogka kabi. Boshqa barcha holatlarda: a), jarangsiz undoshlardan so'ng -ka. jarangli undoshdan va unlidan so'ng -ga talaffuz etiladi: otka, oshka. qopka. ammo uyga, ovga, tolga. fomga, bolaga, akaga kabi. 3. Fe'llarda: a) ongtla > angla, sonta > sana, yoshta > yasha kabi: b) ek +gan > ekkan. ket+gan > ketkan. oq+gan oggan, tush+gan > tushkan kabi. 4. Olmoshlarda: utn+da > unda, bu+n+da > bunda, shu-+n+da > shunda (bir &n> ortiriladi), men tning > mening, sen tning > sening (bir <n> tushiribqoldiriladi).5. Birso'zidan dona son yasalganda, o'zakdagi er> undoshi <toga o'tadi: bir+ta > bitta kabi. 5 - sinf " Ona tili " darsligida (N.Mahmudov , A . Sobirov , Sh . Sattorov, Sh . Toshmirzayeva , D . Mannopova . Toshkent . 2020.) talaffuz qoidalari va imlo me'yorlari bir mavzu doirasida berilgan . Bu bo'lim da harflar talaffuzi va imlosi haqida ma'lumotlar berilgan , qoidalar asosida . 23 ta tovush , 22 ta harf shulardan 6 ta unli va 16 ta undosh harflar va 1 ta undosh tovush talaffuzi va imlosi berilgan . Bu darslikda 7 ta (l, m, n, q, r ,b, p) undosh tovushlar talaffuzi va imlosi berilmagan . Bu harflar bilan ham bog'liq talaffuzda o'xshashliklar borku axir , b va p (boribdi - boripti) , m va n (mumkin - munkin) , q va g (tog'ga va toqqa) kabi . Bu kabi holatlardachi ayrim o'quvchilar ,albatta, talaffuzda qanday bo'lsa shunday yozadi . Bu tovushlar nega berilmasligi kerak, e'tibor beradigan bo'lsak , darslikda berilgan tovushlar jufti bilan ya'ni , jarangli va jarangsiz lekin jufti yo'q bo'lsada , tovush sifatida qaraladiku . Albatta , darslikdagi bu holatga o'zgartirish kerak . O'zbek tilida hali ham unli tovushlarda ayrim muammolar bor . Bulardan unlilarning kamligi , o'zbek tilida ham ingliz tili kabi transkripsiya bo'lishi kerakligi , maalan , bilan so'zidagi birinchi bo'g'indagi " i" unlisining bilinar - bilinmas talaffuz qilinishi , ammo " i " unlisi aks etadi . O'quv topshiriqlariga keladigan bo'lsak , " A va o unlilarining talaffuzi va imlosi " mavzusidagi 132 - mashq (62 – bet)

dagi berilgan xato so'zlarni to'g'ri ko'chirish kerak . Bular : qaynaq (qaynoq) , matba (matba) , samon (somon) ,zopark (zoopark) , akean (okean) ,moshina (mashina). Talaffuzda boshqacha lekin imlosi boshqacha yozilishi bu o'quvchi uchun kerakli ma'lumot va kichik bir qoida sifatida kerakli mashqlardan biridir . 38 – dars " l va e unlilarining talaffuzi va imlosi " (63 – bet) mavzusi to'laqonli yoritilmagan . l va e unlilari ustida mashq va topshiriq berilmagan . l va e unlilari borasida ham ko'plab muammolar mavjud talaffuzda ham imloda ham . 58- §. Orfografiya haqida ma'lumot

Orfografiya (grek. orthos - ato'g'ris t grapho - yozaman>) yozuy

sistemasining ikkinchi komponenti bo'lib, u to'g'ri yozish me'yorlarini

belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi clgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planin(referentini) kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa malum prinsiplarasosida orfogrammarni

tanlashga asoslanadi. Chunonchi, odam sozida edning yozilishi udgrafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu sozning yozilishi grafika tomonidan boshqariladi. Hozir O'zbekistonda amaldagi (kirillcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlaridan foydalanilmoqda. Demak, shu ikki yozuvning imlo

qoidalaridan xabardor bo'lish zamon talabidir. 1. Kirillcha o'zbek yozuvining imlo qoidalari dastlab 1940- yilning 4- iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan*? vashu yilning o'zida Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi nomli to'plamda e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952-, 1953-1955- yillarda O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5- nashri 1956- yilning 4- aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi (kirillcha) o'zbek yozuvining imlosi ana shu qoidalar-ga asoslangan. U quyidagi 5 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Ayrim harflarning imlosi (1-30- § qoidalari).
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-§5- § qoidalari).
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58- § qoidalari)
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62- § qoidalari).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72- § qoidalari).

2. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari 1995- yilning 24- avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida <O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari> nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi: 1. Harflar imlosi:

- Unlilar imlosi (1-7- qoidalar).
- Undoshlar imlosi (8-32- qoidalar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37- qoidalar).
3. Qo'shib yozish (38-50- qoidalar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56- qoidalar)
5. Ajratib yozish (57-65- qoidalar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74- qoidalar).
7. Ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Savod so'zida esa boshqacharoq holatga duch kelinadi: so'z oxiridagi edo jarangsiz atga o'tadi (savor tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: savod (fonematik prinsip asosida) - savot (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me'yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o'zbek orfografiyasida savod deb yozish qoidalashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada qoshma soz komponentlarining qo'shib yoki ajratilib yozilishini. so'z qismlarining satrdan satrga ko'chirilishini, bosh va kichik harflarning qo'llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki. ular yozuvning grafikaga aloqador bo'lmagan

jihatlarni tartibga solish va boshqarish imkonini beradi. Adabiy tilning og'zaki shaklida so'z tanlash, gap tuzish va to'g'ritalaffuz meyorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, uning yozma shaklida orfografiya me'yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday meyorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining tog'ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyanin (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo'l qoymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy rolini mustahkamlashda buning o'ziga yarasha ahamiyati bor 59- S. Orfografiya prinsiplari Orfografiya prinsiplari - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan prinsiplar. Ularning quyidagi turlari bor 1. Fonetik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'raso'z yoki so'z shakllari talaffuzdagi ko'rinishiga mos ravishda yoziladi. Masalan, to'ik tilidagi tanur sozining o'zbek tilida tandir deb, ruschawemxa so' zining esa cho'rka deb yozilishi shu so'zlarning o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik prinsipga) asoslanadi. Shuningdek, ek +gan, ek +guncha kabi so'z shakllari ham o'zbek yozuvi imlo qoidalariga kora

ekkan, ekkuncha deb (talaffuziga mos tarzda) yoziladi, Quyidagi holatlarda ham fonetik prinsipga amal qilinadi: a) ayrim otlarga egalik affiksi qo'shilganda: burni > burni, ko'ngil > ko'nglim, og'iz > og'zing, o'g'il > o'g'lim kabi; d) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: ulug' > ulg'aymoq, sarig > sarg'aymoc kabi; d) gotmoq, achimog, isimog fe'llaridan sifat yasalganda: qot(moq) > qattiq, achi(moq) > achchiq, isi(moq) > issiq kabi;

e) son, ot, yosh, ong so'zlaridan fe'l yasalganda: son > sana, ot > atamoq, yosh > yashamoq, ong > anglamoq kabi; Nutq tovushi talaffuzni belgilashda tovushning to'g'ri aytilishi asosiy rol o'ynaydi. O'zbek tili talaffuzi me'yorini o'rganishda ayrim tovushlarni talaffuz qilish qonuniyatini bilish zarur. Ulardan asosiylari quyidagilar: 1. (b) undoshi bilan tugaydigan (sarob), (xitob), (adab), (maktab), (tilab) kabi sozlamning oxiri o'zbek tilining deyarli

hamma shevasida (p) tarzda talaffuz qilinadi va bu hol talaffuz uchun me'yoriy hodisa hisoblanadi. Lekin bu so'zlarning oxiriga affiks yoki bir unli tovush qo'shilishi bilan (p) tovush yana (b) tarzida talaffuz qilinadi: (kitobi), (maktabi). Xuddi shunga o'xshash b tovushining so'z oxirida (p) tarzida talaffuz qilinishi (borib)(kelib), (aytib) singari fe'llarda ham mavjud. 2. Og'zaki nutqda va deyarli barcha o'zbek shevasida [uchta]so'zi - (ushta), (uch so'm) so'zi - (usso'm), (besh so'm) so'zi (bessum), (quchdi) so'zi - (qushdi), (echdi) so'zi - (eshdi), (izsi) so'zi - (issiz), (yuzsiz) so'zi - (yussiz) tarzda talaffuz qilinadi va bunday talaffuz qilish adabiy talaffuz me'yoriga muvofiq. Lekin (toshni) o'rnida (toshshi), (tishni) o'rnida (tishshi), (so'zni) o'rnida (so'zzi), (qomni) o'rida (qorri), (kimni) o'rniga (kimmi) tipidagi

ayrim talaffuzlar va (o'rda), (sho'rda), (o'wa), (sho'tta), (aqqa),

(baqqa) kabi shakllar adabiy talaffuz me'yoriga mos emas. Chunki

bunday qo'llash ko'pchilik shevaga emas, balki bir yoki bir tipli shevalarga xos bo'lganligi uchun umumxalq tilining talaffuzini aks nutqda har

ettirmaydi. Ikkinchidan, ular og'zaki xillikni ko'paytiradi. 3. Maroqand), [dardmand), lqand), [band), [post] kabi birliklar so'ngidagi (d) tovushining nutqda (0) tarzda talaffuz qilinishini yoki shu turdagi so'zning ba'zilarida so'z oxiridagi (d) yoki (i) undoshining og'zaki

nutqda tushib qolishini ((xursan) (Samarqan),(go'sh), (pas) singari) ixchamlikka intilish nuqtayi nazaridan, tilimiz tabiatini hisobga olgan holda va an'ana bo'lib qolganligidan talaffuz me'yoriga muvofiq kelishini e'tirof etishga to'g'ri keladi. 4. Og'zaki nutqda (olsa), (solsa), (olgan) singari so'zlar talaffuzida((tovushini ko'p hollarda tushirib qoldirish ham bugungi kunda adabiy talaffuz me'yoriga aylanib qolgan. (Sopti), (qipti), (qopti), (ketarkan), (sovor), (ayr) kabi so'zlarning og'zaki nutqdagi talaffuzi ham shu hodisaga kiradi. 5. (Buncha)-(muncha), (bundan)-(mundan) tipidagi so'zning adabiy nutqimizda baravar ishlatilishi ham adabiy talaffuz me'yoriga zid emas. (Tanbur) so'zining (tambur) tarzida, (sunbula) so'zining (sumbula) tarzida talaffuz qilinishi ham talaffuz me'yoridan chetga chiqish bo'lmaydi. 6. (Chiroq), (oyoq), (yonoq), (yaproq) tipidagi so'zlarning oxiridagi (q) tovushini (g) tarzida aytish nutqimizdagi shuso'zlarning asli holatiga to'g'ri kelmaganidek, o'zbek tilining tabiatiga ham mos emas. Shuning uchun ham yuqoridagi so'zlar oxiridagi (q) tovushini o'zining orfografik holatini saqlagan holda og'zaki nutqda ham (q) tarzida talaffuz qilish maqsadga muvofiq Ayni vaqtda bu talaffuz bilan imlo muvofiqligini ta'minlaydi.

7. Hozingi yozuvimizda bir xil yoziluvchi ayrim so'zlar ham borki, ularning og'zaki talaffuzi farq qiladi va bu farqni nutqda aralashtirish yaramaydi. Masalan, (ravshan) va (tavsiya) so'zlaridagi (v) tovushi og'zaki nutqda (u) ga moyil qilib lab-lab (v) tarzda talaffuz etilmog'i lozim. Bu so'zlardagi (v) ni () tarzida talaffuz qilish hozingi talaffuz me'yoridan chekinishdir. 8. Og'zaki nutqda bir tovush bilan boshga bir tovush almashinib qo'llanilishi mumkin. Masalan, (ketdi) so'zini (ket), (boramiz) so'zini (boramis), (baland) so'zini (balan) kabi. Bu qoida ko'proq undoshga xos. Lekin u ba'zan unliga ham joriy qilinishi mumkin. Masalan, (shu erda) birikmasi xalq shevasining deyarli ko'pchiligida (shierda) deb talaffuz qilinadi va bu hol adabiy talaffuz me'yoridan chetga chiqish bo'lmaydi. Biroq nlinialmashtirib talaffuz qilish undoshni almashtirib talaffuz qilishga nisbatan amalda kam uchraydi. Chunki unlini almashtirib talaffuz qilish ko'pincha so'z ma'nosining buzilishiga olib keladi. Masalan: kir-ker-kar-kor-ko 'r; sil-sel-sal-sol-so 1.

9. Undoshlarning talaffuzi ham muhim ahamiyat kasb etadi va ulami noto'g'ri talaffuz qilish qo'pol xatolarga olib kelishi mumkin. Masalan, ba'zan (ng) tovushi yozilishiga qarab n+g tarzida (borin- giz, kelin-giz, o zin-giz kabi) talaffuz qilinmoqda. Holbuki (ng) tovushi aslida (n) tovushiga o'xshash sodda bir tovush bo'lib, unda burun rezonansi kuchliroqdir. Alfavitda bu tovush o'zining alohida grafik belgisiga ega bo'lmay, qo'shimcha (g) tovushi yordamida ikki harf bilan berilganligi tufayli alifbodagi bu kamchilik imlo orqali talaffuzga salbiy ta'sir etib, ba'zi so'zlamni buzib talaffuz qilishga sabab bo'ladi. Demak, unli va undosh tovushni to'g'ri talaffuz etmaslik jiddiy chalkashlik va nuqson tug'dirishi mumkin.

10. O'zbek tiligazlashgan baynalmilal so'zning deyarli hammasi aslida qanday qo'llangan bo'lsa, og'zaki adabiy nutqda ham asosan asliga mos ravishda talaffuz qilinadi. Bunga (abrika) so'zining (pabrika) emas, asl holicha (fabrika) tarzida talaffuz etilishi misol bo'la oladi. Shuningdek, (avtomobil) so'zini (aftamabil), familiyalarning oxiridagi (-ov) affiksini (-o)) tarzida, xotin-qizlar familiyasidagi (-v) ni esa lab-lab (-v) tarzida (u) unlisiga yaqin talaffuz qilish ham talaffuz me'yoridan chekinish hisoblanmaydi. yutuqlardan biri va

tilning ifodasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqador. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomon mavjud. Yozuv ko'p holda tilning o'mini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyat yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto avlodlar bilan ham aloqa bog'lash imkoniyati mavjud. Biroq yozuvning tilga nisbatan oziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to'liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksi. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasiga zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangan. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko'rilganda vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositasiz, ya'ni yozuv asbobisiz amalga oshmaydi. To'rtinchidan, yozuv savodi yo'q kishi uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda (masalan, qorong'ida) ahamiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z shaklini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. Yozuv esé, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli shakli sifatida oz tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarish yoki jamiyatning talabiga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi holda uning o'rnini bosa olsa ham, lekin funksiyasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo'la olmaydi. Bugungi o'zbek imlosi fonetik, morfologik, tarixiy-an'anaviy farqlovchi (differensial) va shakliy(grafik) yozuv tamoyillariga tayanadi. Sheva va ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og'zaki nutq tovushining bir-biriga ta'sir qilishi natijasida so'z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko'p xilma-xillikning hammasi ham sodir bo'ladi. Bu o'zgarish aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni orfografiyada ta' minlab bo'lmas edi. Yozuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanaigan qoidalari ishlab chiqqan. O'zbek tilida yana bir masala o'zbek tovushlarida ham transkripsiya yo'qligi. O'zbek tili tovushlariga ham transkripsiya o'quvchilarga yengillik beradi. Talaffuz va imloni farqlay olishi oson bo'ladi. Buni amaliyotda qo'llash uchun yillar zarur bo'ladi, albatta. Transkripsiya. Transkripsiya so'zi lotin tilidagi transcription degan so'z asosida kelib chiqqan. Bu stenografiya singari maxsus va sun'iy yozuv bo'lib, nutqdagi so'zlarning talaffuzini aniq ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Uning ishlatilish doirasi juda tor. Agar orfografiya hamma uchun umumiy va birdan-bir yozuv deb hisoblansa, transkripsiya maxsus ehtiyojlar uchun ishlatiladi. Ishlatilish maqsadiga ko'ra, transkripsion yozuv fonetik, fonematik, amaliy transkripsiyaga ajratiladi

Fonetik transkripsiya. Fonetik transkripsiya talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Transkripsiyaning bu turi xorijiy tillar lug'atida keng qo'llaniladi. Orfografiyasi tarixiy va an'anaviy prinsiplarga asoslangan tillarning talaffuzini aks ettirishda maxsus fonetik transkripsiyaning roli ayniqsa kattadir. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Bu transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo'lishi mumkin. Ba'zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa u diakritik belgilardan

boshqa alifbelardan qo`shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo`lidan foydalanadi.

Fonetik transkripsiya chet tilini o`rganishda katta ahamiyatga egadir.

Xullas, talaffuzda ham imloda ham hali hamon tilshunoslikda kamchiliklar mavjud . Darsliklarda ham bu holat aks etmoqda , orfografiya faqatgina 5 – sinf ona tili darsligi uchun emas , 11 – sinfga qadar oz - oz berib mustahkamlab borilishi zarur . Bu o`quvchilarda ham so`z boyligini ham to`g`ri talaffuzni shakllantiradi.

ILOVA

1. Orfografiya – muayyan til yozuv sistemasining to`g`ri yozish me`yorlarini belgilaydigan imlo qoidalari .

2. Orfogramma – so`zning yoki so`z formasining imlo qoidasiga mos ravishda yozilgan shakli .

3. Orfoepiya – so`zlarni , ularning tarkibidagi tovushlarni , shuningdek, o`zak qo`shimchalardan iborat so`z formalarini to`g`ri talaffuz qilish me`yorlari tizimidir .

4. Transkripsiya – maxsus va sun`iy yozuv bo`lib nutqdagi so`zlarning talaffuzini aniq ko`rsatish uchun ishlatiladi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1 . H . Jamolxonov . “ Hozirgi o`zbek adabiy tili “ Toshkent – “ Talqin” – 2005.
2. M.T. Irisqulov .” Tilshunoslikka kirish” . Toshkent .
3. R . Sayfullayeva va boshqalar . “ Hozirgi o`zbek adabiy tili “ . Toshkent - 2009
- 4 . Z. T .Xolmanova . “ Tilshunoslikka kirish “ . Toshkent - 2007 .
5. N. Mahmudov . A. Sobirov ,Sh ,Sattorov , Sh . Toshmirzayeva , D.Mannopova . 5 – sinf “ Ona tili “darsligi Toshkent - 2020 .
6. “Ona tili “ o`qituvchi kitobi Toshkent - 2020 .
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.